

# O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasidagi kimyo sanoat mahsulotlarining 24 iyun sanasidagi savdo yakunlari

// 24 June 2021 yil

<https://special.uzkmyosanoat.uz/oz/press/news/birja20210624>

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasidagi o'z savdo maydonchasi orqali tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan kimyo mahsulotlari savdosining 2021 yil 24 iyun sanasidagi yakuni bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etadi.

Joriy yilning 24 iyun kuni "O'zkimyosanoat" AJ tizimidagi korxonalar tomonidan O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi ochiq birja savdolari orqali 9297 tonna 19522,8 mln. so'mlik mineral o'g'itlar sotildi. Bir kun oldin bu ko'rsatkich yuqori bo'lgan ya'ni 23 iyun kuni 26087,5 mln. so'mlik 12372 tonna mineral o'g'itlar sotilgan.

Birja savdolariga tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan ammiakli selitra, karbamid, sulfat ammoniy, ammofos, PS-Agro, kaliyli o'g'itlar, superfosfat azot-fosforli o'g'it kabi mahsulotlar qo'yildi. Savdoga qo'yilgan mineral o'g'itlardan ammiakli selitra eng ko'p sotilgan mahsulot bo'lib, sotuvning 59 foizini tashkil etdi.

Shuningdek, "O'zkimyosanoat" AJ tizimidagi korxonalar tomonidan mineral o'g'itlardan tashqari bugungi kun sanoatida keng qo'llanilayotgan PVX, kaustik soda, formalin, natriy gipoklorid, kaltsinatsiyalangan soda, azot kislotosi va suyuq kislorod kabi bir qator kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Ular ham doimiy ravishda birja savdolariga qo'yib boriladi. 24 iyun kuni jami 3939,6 mln. so'mlik boshqa turdag'i kimyo mahsulotlar sotildi. Bir kun oldin bu ko'rsatkich past bo'lgan, ya'ni 23 iyun kuni 2220,0 mln. so'mlik boshqa turdag'i kimyo mahsulotlari sotilgan. Sotuvning asosiy qismini ya'ni 59,2 foizini PVX mahsuloti tashkil etdi.

O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasidagi "O'zkimyosanoat" AJ savdo maydonchasi orqali tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar savdosи bo'yicha barcha ma'lumotlarni [www.uzkmyosanoat.uz](http://www.uzkmyosanoat.uz) rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi <https://t.me/uzkmyosanoat> va <https://www.facebook.com/uzkmyosanoat/> rasmiy sahifalari orqali olishingiz mumkin.

Mahsulotlarni yetkazib berish va ularning sifat darajasi bo'yicha taklif va e'tirozlarining bo'lsa, (78) 140-74-48 ishonch telefon raqamiga murojaat qilishingiz mumkin.

**"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati**